



TASDIQLAYMAN:

“UMS” MChJ ma'muriy direktori

M.R. Kamalidinov

2026-yil “26” 02

Toshkent shahri va Toshkent viloyatidagi omborxonalar uchun uskunalarni tashishga mo'ljallangan gidravlik aravachalarni xarid qilish bo'yicha

TEXNIK TOPSHIRIQ

“UMS” MChJ ehtiyojlari uchun
(“Universal Mobile Systems” mas'uliyati cheklangan jamiyati)

Toshkent shahri

2026-yil

Mundarija

| | |
|-----------------------------------------------------------------------------------|---|
| 1. Umumiy ma'lumotlar | 3 |
| 1.1 Tovarlar tavsifi (funktional va iste'mol xususiyatlari) | 3 |
| 1.2 Tovarlarni xarid qilish maqsadi | 3 |
| 1.3 Xarid amalga oshirilayotgan loyihani bajarish uchun asos | 3 |
| 1.4 Yangiligi to'g'risida ma'lumot | 3 |
| 2. Ishtirokchiga qo'yiladigan umumiy talablar | 3 |
| 3. Tovarlarning texnik xususiyatlari | 3 |
| 4. Yetkazib berishga oid talablar | 4 |
| 5. Komplektatsiya bo'yicha talablar | 4 |
| 6. Miqdor, davriylik, yetkazib berish muddati va joyiga oid talablar | 4 |
| 7. Hujjatlarga oid talablar | 4 |
| 8. Kafolatli va kafolatdan keyingi xizmat ko'rsatishga doir talablar | 4 |

1. Umumiy ma'lumotlar

1.1 Tovarlar tavsifi (funktional va iste'mol xususiyatlari)

Gidravlik aravacha – uskunasi metallardan, g'ildiraklari esa poliuretandan yasalgan. Roliklari va g'ildiraklari poliuretan. Tutqichining qoplamasi sovuqqa chidamli poliuretandan. Uskuna gidravlik domkratlar bilan butlanadi. Hidravlika nasos yordamida harakatga keltiriladi. Nasosning vazifasi havo bosimining belgilangan darajasini ta'minlashdan iborat. Hidravlik yuritmalar harakatlanuvchi platformaga joylashtiriladi. Maydoncha buriluvchi dasta yordamida boshqariladi. Taglikni qamrash vilalar yordamida amalga oshiriladi. Elementlarni gidravlik tugun bilan ulash uchun richag tipidagi burchakli konsollardan foydalaniladi.

1.2 Tovarlarini xarid qilish maqsadi

Gidravlik aravacha tagliklardagi katta hajmli yuklarni tashish uchun ishlatiladi. Ushbu mexanizmlar omborxonalarda yuklarni ortish, tushirish va tashish ishlarini bajarishga yordam beradi.

1.3 Xarid amalga oshirilayotgan loyihani bajarish uchun asos

Byudjet moddasi 1.12.10.1 Xo'jalik inventari / Tijorat maqsadi uchun

1.4 Yangiligi to'g'risida ma'lumot

Yetkazib beriladigan Tovar yangi, o'z vazifasiga ko'ra foydalanishga yaroqli, O'zbekiston Respublikasida o'rnatilgan standartlarga va ushbu toifadagi Tovarlarining sifatiga oid talablarga muvofiq bo'lishi kerak. Ishlab chiqarilgan yili 2025-yildan kechikmagan bo'lishi lozim.

2. Ishtirokchiga qo'yiladigan umumiy talablar

Yetkazib beruvchi Buyurtmachining talabiga binoan tovarni belgilangan manzilga yetkazib berishi, kamomad o'rmini to'ldirishi, sifatsiz Tovarni sifatli Tovarga almashtirishi yoki aniqlangan nuqsonlarni (kamchiliklar, nomuvofiqliklarni) 3 (uch) kalendar kundan oshmagan muddatda bepul bartaraf etishi shart. Nuqsonli Tovarni almashtirish, uni yetkazib berish va sifatsiz Tovarni olib chiqib ketish bilan bog'liq barcha xarajatlarni Yetkazib beruvchi o'z zimmasiga oladi. Yetkazib berilayotgan Tovarining sifati va aniqlangan yashirin nuqsonlar bo'yicha e'tirozlar bildirish muddati O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq belgilanadi.

3. Tovarlarining texnik xususiyatlari

| T/r | Funktional (texnik) xususiyatlari | Talab etiladigan xususiyatlar qiymati | Soni |
|---------------------------|------------------------------------|---------------------------------------|---------------|
| Gidravlik aravacha | | | |
| | Turi | qo'lda boshqariladigan | 4 dona |
| | Yuk markazi | 575 mm | |
| | Yuk ko'tarish quvvati | 2500 kg | |
| | Ko'tarish balandligi | 200 mm | |
| | Ko'tarish balandligi (minimal) | 85 mm | |
| | Klirens (yo'l sathidan balandligi) | 25 mm | |
| | Villa uzunligi | 1150 mm | |
| | Villalar kengligi | 550 mm | |
| | Villalar orasidagi masofa | 230 mm | |

| | | |
|--|---------------------------------------|---------------|
| | Bitta villa kengligi | 160 mm |
| | Villa balandligi | 60 mm |
| | Umumiy uzunligi | 1530 mm |
| | Umumiy kengligi | 550 mm |
| | Dasta balandligi | 1220 mm |
| | Gabarit balandligi (minimal) | 440 mm |
| | Old g'ildiraklar o'lchami | 200x50 mm |
| | Orqa g'ildiraklar o'lchami | 80x70 mm |
| | Old/orqa g'ildiraklar soni | 2/4 |
| | Burilish radiusi | 1367 mm |
| | Palleta bilan o'tish yo'lagi kengligi | 1832 mm |
| | Ishlash harorati | -20....+50 °C |
| | Vazni | 84 kg |

4. Yetkazib berishga oid talablar

Tovarning narxi, boshqa narsalar qatori, Tovarni belgilangan manzilgacha yetkazib berish bo'yicha transport xarajatlarini, Tovarni ortish, tushirish yoki qayta ortish xarajatlarini, qadoq/idora narxini, shuningdek, tuzilgan shartnoma shartlarini bajarish bilan bog'liq boshqa xarajatlarni o'z ichiga oladi. Tovarning qadog'ida nomi ko'rsatilgan yorliq (nakleyka) bo'lishi, qadoq esa uni turli transport vositalarida, jumladan qayta ortish, tushirish va saqlash vaqtida but saqlanishini ta'minlashi kerak.

5. Komplektatsiya bo'yicha talablar

Tovarning komplektatsiyasi mazkur texnik topshiriqda keltirilgan ma'lumotlarga (tavsiflar jadvaliga) muvofiq bo'lishi kerak.

6. Miqdor, davriylik, yetkazib berish muddati va joyiga oid talablar

Tovar Buyurtmachi tomonidan Toshkent sh., Farg'ona yo'li ko'chasi, 15-uy manzilida topshirish vaqtida qabul qilib olinadi. Qabul qilish davomida Tovarning nomi, assortimenti, miqdori va sifatining tuzilgan shartnoma hamda texnik xulosa shartlariga muvofiqligi tekshiriladi.

7. Hujjatlarga oid talablar

Yetkazib beruvchi yetkazib beriladigan tovarga hisobvara-faktura, zarur bo'lganda esa, ushbu texnik qurilmalarning O'zbekiston Respublikasi hududida amalda bo'lgan me'yorlar va standartlarga muvofiqligi to'g'risidagi sertifikatni taqdim etishi shart.

Buyurtmachi quyidagi holatlar aniqlanganda Tovarni qabul qilishdan, qabul qilish-topshirish dalolatnomasi va hisobvara-fakturani imzolashdan bosh tortish huquqiga ega: - kamomad; sifatsiz, shu jumladan, parametrlarga nomuvofiq bo'lgan Tovar topshirilganda, shuningdek Tovarda uning funkcionalligiga va belgilangan maqsadda foydalanilishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan ko'zga ko'rinadigan (yaqqol) nuqsonlar mavjud bo'lganda; Tovarning butligi va assortimenti to'g'risidagi shart buzilganda; Tovarning O'zbekiston Respublikasida belgilangan standartlarga va ushbu toifadagi tovarlar sifatiga oid talablarga nomuvofiq bo'lganda.

8. Kafolatli va kafolatdan keyingi xizmat ko'rsatishga doir talablar

Gidravlik aravachalarga kafolat — qabul qilish-topshirish dalolatnomasi imzolangan paytdan boshlab 24 oy.

Ishlab chiqdi:

*Transport va ombor logistikasi
guruhi rahbari*

(imzo)

I.Y. Xonazarov

Tayyorladi:

*Transport va ombor logistikasi
guruhi katta mutaxassisi*

(imzo)

K.V. Evangelopulos